

VATANIM – MENING FAXRIM!

Topishmoqni toping.

*Chin yurakdan sevaman
Jondan aziz bu joyni.
Men bu joyni bilaman,
Sen-chi, bilasanmi uni?*



Bu – **Vatan**. Kel, Vatanimiz haqida nimalar bilishimizni bir esga olaylik! O'zbekiston Respublikasining qanday davlat ramzlari bor?

Davlatimiz rahbari kim?
O'zbekistonning poytaxti qaysi shahar?



Keling, 1-sinfda olgan bilimlarimizni yodga olamiz. Biz tug'ilgan joy **Vatan** deb ataladi. Biz o'z **Vatanimizni** sevamiz. Agar sal uzoqroqqa ketgudek bo'lsak, uni darrov sog'inib qolamiz.



1. Nega Vatan har birimiz uchun aziz?
2. O'zbekiston nimalari bilan mashhur?
3. Quyidagi maqolni o'qib, ma'nosini tushuntiring:
Vatan qadri Vatandan uzoqda bilinar.



O'z Vataniga sodiq hukmdor

Sohibqiron **Amir Temurning avlodi** – bobomiz **Zahiriddin Muhammad Bobur** Andijonda tug'ilgan bo'lib, buyuk sarkarda, shoir va davlat arbobi sifatida ma'lum va mashhurdir.

Bobur Hindistonni zabt etib, u yerda Buyuk Boburiylar saltanatiga asos soldi. Bu qudratli davlat uch yuz yil hukm surdi.

O'z Vatanini sog'ingan podshoh ona yurtidan tok qalamchasi va qovun urug'i keltirishni buyurib, hind tuprog'iga ektirdi. Lekin uzum va qovunning mazasi o'zi kutganidek vatanidagi kabi shirin bo'lmadi.

Bir kuni Bobur Mirzoga ona yurti – Andijondan qovun olib kelishdi. Podshoh qovunni hidlab, to'yib-to'yib yig'ladi.



1. Nima uchun Bobur Mirzo qovunni hidlab, yig'lab yubordi?
2. Sizningcha, o'zga yurtidan turib, Vatanga bo'lgan muhabbatni qanday namoyon qilish mumkin?



O'zbekiston Respublikasi **12 ta viloyat, Qoraqalpog'iston Respublikasi** va **Toshkent shahridan** tashkil topgan.

Mamlakatimizning har bir go'shasida go'zal shahar va so'lim qishloqlar juda ko'p. Biz yashayotgan viloyat, shahar yoki qishloq bizning **kichik Vatanimizdir**.



Mamlakatimiz poytaxti Toshkent – Markaziy Osiyodagi eng go'zal va ko'pmillatli shaharlardan biri. Tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladigan ushbu shahar ko'plab sayyoh-u mehmonlarni o'ziga maftun qilib kelmoqda.



O'zbekistonning **Samarqand, Buxoro, Shahrisabz** va **Xiva** kabi qadimiy shaharlari YUNESKOning* Umumjahon merosi obyektlari ro'yxatiga kiritilgan.



Xaritadan o'zingizga tanish bo'lgan shaharlarni toping.



O'zingiz yashab turgan joy tarixi haqida kichik hikoya tayyorlang. Kerakli va qiziq ma'lumotlar to'plash uchun yaqinlaringizdan intervyu oling.



***YUNESKO** – fan va madaniyatni rivojlantirish hamda umumjahon merosi obyektlarini himoya qilishga yordam beradigan xalqaro tashkilot.